DAVLAT TILIDA ISH YURITISH KURSINI O‘QITISHDA INTERFAOL TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Toshtemirova N.X.
Guliston davlat pedagogika instituti,
O‘zbek tili va tillarni o‘qitish kafedrasi o‘qituvchisi
E-mail: toshtemirova74@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada oliy ta’lim muassasalarida Davlat tilda ish yuritish kursini interfaol texnologiyalardan foydalangan holda o‘qitish talaba dunyoqarashining shakllanishi, og‘zaki nutqning rivojlanishi va ravon bo‘lishida,ish qog‘ozlarini yozish savodxonligini oshirish, imlo va adabiy til me’yorlariga amal qilish ko‘nikmalarini oshirish alohida ahamiyatga ega ekanligi haqida so‘z boradi. Shuningdek, amaliy mashg‘ulotlarda interfaol texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshiribgina qolmay, balki talablarning ish qog‘ozlarini yuritish savodxonligini oshirishda muhim ekanligi keng ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, ish qog‘ozlari, texnologiya, davlat tili, ish yuritish, mustaqil o‘rganish.

Ayni paytda mamlakatimizda vujudga kelgan shart-sharoitlar ta‘limning shakli, mazmuni va uni amalga oshirish mexanizmlarini qayta ko‘rib chiqish va bu jarayonga tegishli o‘zgartirishlar kiritishni taqozo etmoqda.Ta‘lim tizimini tashkil etishning samarali mexanizmlarini joriy etish o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma‘naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishini sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, o‘quv-tarbiya jarayonida ta‘limning innovatsion shakllari va usullarini qo‘llashga ko‘maklashadi.

Hozirgi kunda jahon ta‘lim tizimida kreativ fikrlashni kuchaytirish va yangi texnik fikrlashni izlashning nazariy asoslari va uslubiy vositalarining rivojlanishi yo‘nalishi paydo bo‘ldi. Bu shuni ko‘rsatadiki, ijodkorlikning ilmiy asoslarini rivojlantirish, kreativ jarayonni kuchaytirish usullarini ishlab chiqish, innovatsion ta‘lim metodlarini o‘rgatish, ilmiy, loyihalash va konstruktorlik va texnologik tashkilotlarda, korxonalar va universitetlarda ijod uchun qulay sharoitlar yaratish dolzarb ehtiyojga aylandi. Zamonaviy ta‘lim mutaxassisning kelajakdagi kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonish imkoniyatini yaratishi uzoq vaqtdan ma‘lum. Ta‘lim jarayonida zarur bilim va ko‘nikmalar, kasbiy munosabat, faoliyatning ayrim turlariga va uning tuzilishiga tayyorlik to‘plami shakllanadi. Ta‘lim ma‘lum qobiliyatlarning rivojlanish darajasini belgilaydi va hatto mutaxassisning individualligi yoki shaxsiy xususiyatlarini to‘g‘rilaydi va shakllantiradi. Shuning uchun oliy o‘quv yurtlari va fakultetlarida malakali kasb egalarini tayyorlashda zamonaviy o‘qitish metodlari-interaktiv metodlar,

Innovatsion ta‘lim texnologiyasi - bu o‘quv jarayonining samaradorligini oshirish va ta‘lim faoliyati uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish uchun mavjud usullar va vositalarni yangilash yoki sifat jihatidan yaxshilashni o‘z ichiga olgan o‘quv va ta‘lim faoliyatini tashkil etish metodologiyasidir [1].

Talabalar turli axborotlar va ma’lumotlarni tushunib yetishlari katta ahamiyatga ega. Ko‘pincha talaba shoshib o‘qib, matnni oxiriga kelib, nima haqida o‘qiganini unutadi. Shuning uchun darsda ularda eslab qolish ko‘nikmasini shakllantirishga yordam beradigan metodlarni qo‘llashning ahamiyati katta. Ana shunday matnni diqqat bilan o‘qish va mustaqil fikrlashga yo‘naltiradigan, talabalarni o‘qiyotgan o‘quv materiallarini qay darajada tushunganliklarini aniqlashga qaratilgan interaktiv metodlardan biri “Charxpalak” texnologiyasi hisoblanadi.

Bilamizki, ish yuritishning bevosita asosini hujjatlar tashkil qiladi. Mazmunan, hajman va shaklan xilma-xil bo‘lgan hujjatlar katta-yu kichik mehnat jamoalarining, umuman, kishilik jamiyatining uzluksiz faoliyatini tartibga solib turadi. Davlat tilida ish yuritish kursida talabalar hujjatlarning turlari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari, zaruriy qismlarini o‘rganishda innovatsion texnologiyalar foydalanish maqsadga muvofiqdir.

“Charxpalak” texnologiyasi talaba(yoki o‘quvchi)larni o‘tilgan mavzularni yodga olishga, mantiqan fikrlab, berilgan savollarga mustaqil ravishda to‘g‘ri javob berishga va o‘z-o‘zini baholashga o‘rgatishga hamda qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha talaba(yoki o‘quvchi)larning egallagan bilimlarini baholashga qaratilgan [1].

Texnologiyaning maqsadi: talaba(yoki o‘quvchi) larni dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o‘z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga, ko‘p fikrlardan keraklisini tanlab olishga o‘rgatish.

Texnologiyaning qo‘llanilishi: texnologiya o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida dars boshlanishi yoki dars oxirida yoki o‘quv predmetining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni talab(yoki o‘quvchi) lar tomonidan o‘zlashtirganlik darajasini baholash, takrorlash, mustahkamlash yoki oraliq va yakuniy nazorat o‘tkazish uchun mo‘ljallangan. Ushbu texnologiyani mashg‘ulot jarayonida yoki uning bir qismida yakka, kichik guruh va jamoa shaklida tashkil etish mumkin.

Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar: tarqatma materiallar, rangli qalam(yoki flomaster) lar. **Izoh:** reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash) ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish mo‘ljallangan bo‘lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi: talaba(yoki o‘quvchi) larni (sharoitga qarab) guruhlarga ajratiladi; talaba (yoki o‘quvchi) mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talablar va qoidalar bilan tanishtiriladi; tarqatma materiallar guruh a’zolariga tarqatiladi; guruh a’zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi; har bir guruh a’zosi o‘zi ishlagan tarqatma materialining o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining biron-bir belgisini chizib qo‘yadi; vazifa bajarilgan tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi; yangi guruh a’zolari tomonidan o‘rganilgan va o‘zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo‘nalish bo‘yicha guruhlararo almashtiriladi(ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi); materiallarni oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh

va har bir guruh a’zosi o‘zlari ilk bor to‘ldirilgan materiallarni (guruh raqami va o‘zlari qo‘ygan belgilari asosida)tanlab oladilar; har bir guruh a’zosining o‘zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a’zolarining tuzatishlarini taqqoslaydilar va tahlil qiladilar; o‘qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri javoblarni belgilaydi; har bir talaba(yoki o‘quvchi) to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to‘playdilar va o‘z-o‘zini baholaydilar.

“Charxpalak” texnologiyasini qo‘llashda quyidagi jadvaldan foydalanib har bir guruhga topshiriq sifatida beriladi [2], [3], [4].

№	Hujjatlar nomi	Tashkiliy hujjatlar	Farmoyish hujjatlar	Ma’limot-axborot hujjatlar	Xizmat yozishmalari
1	Ariza			+	
2	Buyruq		+		
3	Nizom	+			
4	Ko‘rsatma	+			
5	Tushuntirish xati			+	
6	Farmoyish		+		
7	Kafolat xati				+
8	Tarjimayi hol			+	
9	Tasdiq xati				+
10	Tavsiyanoma			+	
11	Yo‘riqnoma	+			
12	Bayonnoma			+	
13	Tavsifnoma			+	
14	Dalolatnoma			+	
15	So‘rov xati				+
16	E’lon			+	
17	Tilxat			+	
18	Hisobot			+	
19	Buyruqdan ko‘chirma		+		
20	Bildirishnoma			+	

Xulosa qilib aytish mumkinki, amaliy mashg‘ulotlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish talabalarning intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko‘nikmalarining malakaga aylana borishini ta’minlaydi, ta’lim sifati, samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Ta’lim-tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.Ishmuxamedov, M.Yuldashev. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. -T.: 2013. -279 b.
2. Sadinova N. Ish yuritish terminlarining qisqacha izohli lug‘ati. Toshkent, 2019.
3. M. Aminov , A. Madvaliyev, N. Mahkamov , N. Mahmudov, Y. Odilov. Davlat tilida ish yuritish. Amaliy qo‘llanma. Toshkent, 2021.